

**Yuldasheva F.F**

*Ilmiy rahbar:*

*O’zDJTU Katta o’qituvchisi*

**Ro‘ziqulova Sarvinoz**

*O’zDJTU talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Alisher Navoiy „Xamsa sining falsafiy-didaktik dostoni „Hayrat ul-abrор muqaddima qismidagi ko’ngil obrazi tahlil qilingan.

**Аннотация:** В данной статье анализируется образ сердца во вступлении к философско-поучительному эпосу Алишера Навои «Хамса» «Айрат уль-Аброр».

**Abstract:** This article analyzes the image or the heart in the introduction to Alisher Navoi's philosophical and instructive epic "Khamsa" "Khayrat ul-abrор".

**Kalit so‘zlar:** obraz, arxetip obraz, ruh, jon, tasavvuf, hayrat.

**Key words:** image, archetypal image, soul, soul, mysticism, wonder.

**Ключевые слова:** образ, архетипический образ, душа, душа, мистика, чудо.

„Hayrat ul-abrор dostoni o’ziga xos obrazlar tizimiga ega. Mazkur maqolada „Hayrat ul-abrор dostoni kirish boblaridagi ko’ngil obrazi haqida fikr yuritmoqchimiz, bundan oldin esa badiiy obraz tushunchasiga to’xtalib o’tish joizdir. Badiiy obraz adabiyot va san’atning fikrlash shakli, olam va odamni badiiy idrok etish vositasi, badiiyatning umumiyy kategoriysi. Lug’aviy ma’nosida har qanday aksni bildiruvchi „obraz so’zi turli fan sohalarida muayyan terminologik ma’noda qo’llanadi. Jumladan, estetika va adabiyotshunoslikda u „badiiy obraz ma’nosida tushuniladi<sup>40</sup>. Badiiylik san’atning ham joni, ham ruhi ekan, uni yuzaga keltiruvchi asosiy vositalardan biri badiiy obrazdir va u adabiyotshunoslik fanining markaziy muammosi sanaladi. Chunki adabiyotshunoslik ilmida „obraz deganda inson ongida in’ikos etilgan voqeа-hodisalargina emas, balki shu bilan birga so’z vositasida san’atkor tomonidan anglangan, qayta ishlangan va tasvirlangan hayot tushuniladi.

Qalb kechinmalari, ko’ngil dard-u tug’yonlarini tasvirlashda Navoiy nihoyatda yuqori natijalarga erishgan. Shoir lirik asarlarida ko’ ngil tasvirlari orqali o’zining teran falsafiy mushohadalarini, olam va odam haqidagi chuqur mulohazalarini bayon etgan. Ko’ ngil obrazi shoirning lirik asarlari bilan bir qatorda epic asarlarida ham salmoqli o’rin tutadi. Adabiyotshunoslik ilmida ma’lumki, obrazlar tasnifida arxetip obraz o’zida ma’lum ma’noda sujetni ifodalagani uchun turg’un sxematik obrazdir. Doston ko’ngil hayratlari boblaridagi ko’ngil obrazini o’zida ma’lum ma’noda sujetni aks ettirgani uchun uni arxetip obraz deb hisoblashimiz mumkin.

<sup>40</sup> D. Quronov, Z. Mamajonova, M. Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug’ati. Toshkent. „Akademnashr”, 2010.

Insonlikning mohiyati, uning qalb pokligi, ko'ngil ulug'ligi Alisher Navoiy asarlarining mohiyaini tashkil qiladi. Shu jumladan, Navoiy dahosining yirik ma'naviy xazinasi hisoblanmish „Xamsa” asarining „Hayrat ul-abror” dostonida shoir insonlikning matlabi, uning vazifalari haqida o'zining mukammal mulohazalarini bayon etadi. Avvalo, insonning ko'ngli masalasiga e'tibor qaratadi. Zero, ko'ngil bir oyinadir. Unda yaxshi yoki yomon sifatlarning aks etishi insonning bajargan amallariga bog'liq bo'ladi. Inson o'z-o'zini anglashi bilan dunyoni anglaydi. Ayni shu yo'l haqiqiy ma'noda ko'ngilni taniy bilish muhimligi vajidan Navoiy ushbu dostonining kirish boblarida ko'ngil, uning mavhum holatlarini yoritish uchun maxsus boblar ajratgandir. Bu boblar ko'ngil hayratlari boblari bo'lib, ular to'rtta bobni tashkil qiladi. Ko'ngil hayratlari bobi dostondagi 18, 19, 20-boblarni o'z ichiga olib, ushbu uch bobning har birida uch hayrat tasviri, ifodasi berilgan. Ko'ngil bu boblarda bosh qahramon, asosiy obraz. Uning paydo bo'lishidan tortib, turfa hollarni boshidan kechirishi, o'zini o'zi anglashi bosqichma-bosqich tarzda ifodalangan. Buni quyidagi tartibda guruhash mumkin: birinchi hayratda ko'ngilning malak olamidagi sayri; ikkinchi hayratda malakut olamidagi sayri; uchinchi hayratda esa ko'ngilning badan mulkidagi sayr-suluki tasviri. Modomiki, ko'ngilning sayr makoni olamlar haqida gap borar ekan, tasavvufdagi olamlar haqidagi tushunchalarga to'xtalmoq lozim. Tasavvuf falsafasiga ko'ra, Alloh taolo avval Muhammad alayhissalomning nurini yaratdi. So'ngra shu nur tufayli olamlarni va odamlarni yaratdi. Shunday qilib, olam asosida Muhammad nuri yoki Muhammad haqiqati yotadi. Muhammad alayhissalom nuridan so'ng lohut olami vujudga kelgan. Lohut olami ilohiyot olami demak, undan keyin jabarut, ya'ni buyuklik olami va uning ketidan malakut farishtalar olami yaratildi. Amr al-makkiyining yozishicha, Olloh qalblarni badanlardan yetti ming yil avval yaratgan va o'ziga yaqin bir maqomda saqlagan. Aynan hali badanga kirib ulgurmagan ko'ngilning badan mulki olamigacha bo'lgan holatlari, sayri „Hayrat ul-abror”ning birinchi va ikkinchi hayratlarida tasvirlangan. Uchinchi hayratda esa ko'ngilning mulk olamida qo'nim topishi manzarasi ifodalangan.

Diniy manbalarda keltirilishicha, Yaratuvchi Xoliq inson vujudini bino qilgandan so'ng, birgina puflab, bitta nafas bergenida inson tanasiga jon kirgan ekan. Nafas yel, ya'ni shabadaga har tomonlama o'xshaydi. Ruhning shabada tashbehi bilan qo'llanishi beziz emas. Shabada, yel, shamol bular vujudsiz unsurlar. Ularni ko'rib bo'lmaydiyu, sezish mumkin. Xuddi shundayin inson fiziologiyasini harakatga keltiradigan ruh, jonne ham shunday tushunish mumkin. Tan gulshaniga kirgan ruh, ya'ni nomoddiy mavjudlik olamning asliyati, ya'ni „men bo'lib,u azaldan yartib qo'yigan, o'lmas, abadiydir, u ko'ngilning ichidan o'rinn oladi.

*Ermas edi anda garaz hech gul,  
G' ko'ngulkim, g araz edi ko'ngul.*

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

Tan gulshaniga kirgan shabadaning maqsadi bu yerdagi biron-bir gulni emas, faqatgina ko'ngilni qo'lga kiritish edi. Sababki, ruh ham ko'ngi ham yuqori olamlarga daxldor.

*Gar bu durur har nimakim joni bor,*

*Jismida bu g'unchasifat qoni bor.*

Demak, yurak bilan ko'ngil bitta sharafga ega emas. Ahli dil ‘ bu ko'nglida doim Xudoni saqlagan xudojo'y, mutasavvuf. Hamma vujud gulshanida gulg'unchasi (yurak) bor bo'lgan kishilar ham ko'ngilga ega bo'lavermas ekan.

**ADABIYOTLAR:**

1. Alisher Navoiy. „Hayrat ul-abror” . To’la asarlar to’plami. 6-jild. Toshkent. G’. G’ulom nashriyoti. 2011.
2. D. Quronov, Z. Mamajonova, M.Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug’ati. Toshkent. „Akademnashr , 2010.